

NAMANGAN OBLASTINING XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA EPIDEMIOLOGIK HOLATI VA UNGA QARSHI CHORA-TADBIRLAR.

Nuritdinov Azizxon Usmanovich.

University of Business and Science

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

ANNOTASIYA: Maqolada XX asr I-yarmida Namangan oblastidagi sanitariya epidimiologiya holati, o'lkada xususan shifokorlarning yuqumli kasalliklarga qarshi Namangan oblastida olib borilgan sanitar-epidimiologik kurashlari faoliyati arxiv materiallari, va ilmiy adabiyotlar asosida atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tibbiyot, sanitariya, epidemiologiya, yuqumli kasalliklar, epidemiologik kasalliklar, kasalxona ambulatoriya vabo epidemiyasi bakteriologik laboratoriya, tibbiy bilimlar, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi.

АННОТАЦИЯ: В статье на основе архивных материалов и научной литературы подробно анализируется состояние санитарно-эпидемиологии в Наманганской области в первой половине XX века, особенности санитарно-эпидемиологической борьбы врачей с инфекционными заболеваниями в Наманганской области.

Ключевые слова: Медицина, санитария, эпидемиология, инфекционные болезни, эпидемиологические заболевания, больничная амбулаторная эпидемическая холерная бактериологическая лаборатория, медицинские знания, Государственный центр санитарно-эпидемиологического контроля.

ABSTRACT: In the article, the state of sanitary epidemiology in the Namangan region in the first half of the 20th century, especially the sanitary-epidemiological struggle of doctors against infectious diseases in Namangan region, is analyzed in detail based on archival materials and scientific literature.

Key words: medicine, sanitation, epidemiology, infectious diseases, epidemiological diseases, hospital ambulatory cholera epidemic, bacteriological laboratory, medical knowledge, State sanitary-epidemiological control center.

Muqaddima

Mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar avvalo inson salomatligini asrash, yosh avlodni sog'lom voyaga yetkazish hamda aholini yuqumli kasalliklardan muhofaza qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Tibbiyot ham ilm-fan, ham amaliyot sifatida muntazam takomillashib bormoqda va bu bizning milliy sog'liqni saqlash modelimizda o'z ifodasini topmoqda" [1]. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasiga doir qator huquqiy-normativ hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan 1992 yil 3 iyuldagi "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi [2], 1996 yil 29 avgustdagi "Fuqorolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunlari [3], O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998 yil 10 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni [4], O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.04.2021 yildagi O'RQ-685-sonli shular jumlasidandir [5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi tarixiga oid manbalarni tasniflash (klassifikatsiyalash) va turlarga ajratish (tipologiya qilish) jarayonida tadqiqotning manbaviy asoslarini quyidagi asosiy guruhlariga bo'lish mumkin:

- arxiv hujjatlari va materiallari;
- e'lon qilingan rasmiy hujjatlar va materiallar to'plamlari;
- davriy matbuot materiallari;
- shu sohada ilmiy ish olib brogan izlanuvchilar;

Maqolani yozishda birinchi guruhga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi va Namangan viloyati davlat arxivlarida saqlanayotgan fondlari materiallaridan keng foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining (O'zRMDA, 40-fondi) Namangan viloyati davlat arxividagi 561-fond hujjatlari davriy matbuot nashrlardagi gazeta va jurnallardan ham foydalanilib, yuzaga kelgan muammolarni tavsiflab berishga imkon yaratdi.

Maqolada, ayniqsa, statistika to'plamlari ma'lumotlaridan unumli foydalanib, ularda keltirilgan aniq raqamlar sovet davri sog'liqni saqlash sohasidagi haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qildi. Shuningdek, Gavxar Mo'minovaning "O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi" kitobi, T. S. Sorokinaning "История медицины", O. M. Mirtazaevaning "Epidemiologiya" asarlari sovet davlatining aholi salomatligini muhofaza qilish borasidagi siyosatining aniq mohiyatini anglash imkoni yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasining sovet davri tarixi bugungi kunga qadar yangi nazariy-metodologiya asosida na mamlakatimizda, na xorijda kompleks tarzda maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida olinmagan. Holbuki, davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri sog'liqni saqlash va tibbiyotni rivojlantirishga qaratilib, bu muammoning tahlili masalaga kompleks yondashishni talab etadi, chunki aholi

salomatligini muhofaza qilish jamiyat hayotining xo'jalik, ijtimoiy va ma'naviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar

Ta'kidlash joiz, bugungi kunda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlashda Namangan viloyatida Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi (DSENM) va uning 14 ta tuman markazlari, dezinfeksiya bo'limi va uning tuman bo'limlari tomonidan sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Markaz tibbiy-profilaktika muassasasi hisoblanib, "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va boshqa huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, xizmatning rivojlanish konsepsiyasi asosida majmuaviy sanitariya-gigienik, profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarini amalga oshiradi.

Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash, shahar hududiga chetdan karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklarning kirib kelishining oldini olish, ob'ektlar, texnologik jarayonlar, transport vositalarini tashqi zararli omillardan saqlashda ogohlantiruvchi sanitariya nazoratini o'rnatish, tibbiy madaniyatni oshirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyat hisoblangan sanitariya-profilaktika tadbirlarini amalga oshirish markaz xodimlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Shu o'rinda sanitariya-epidemiologiya tarixiga nazar soladigan bo'lsak o'tkir yuqumli ichak infeksiyalari, bezgak, vabo va boshqa o'tkir respirator infeksiyalar, epidemik parotit, qizamiq, qizilcha, qorin tifi, paratiflar, kuydirgi va boshqa infeksiyalarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'tkazilgan chora-tadbirlar XX asr boshlaridan boshlab bir qator yuqumli kasalliklarning kamayishiga ba'zi kasalliklarni tugatilishiga erishildi. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasining sovet davri tarixi bugungi kunga qadar yangi nazariy-metodologiya asosida na mamlakatimizda, na xorijda kompleks tarzda maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida olinmagan. Holbuki, davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri sog'liqni saqlash va tibbiyotni rivojlantirishga qaratilib, bu muammoning tahlili masalaga kompleks yondashishni talab etadi, chunki aholi salomatligini muhofaza qilish jamiyat hayotining xo'jalik, ijtimoiy va ma'naviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi [6].

Turkiston hukumati Toshkent shahar (keyinchalik o'lkaning boshqa shaharlarida) sanitariya holatini yaxshilash yuzasidan ba'zi tadbirlarni olib borishga majbur bo'ldi. Turkistonda birinchi marta Toshkent shahrida sanitariya inspektori lavozimi joriy etilib, uning zimmasiga shahar sanitariyasi ustidan nazorat o'rnatish vazifasi yuklatildi. Sanitariya inspektori tomonidan umumiy sanitariya, sanoat sanitariyasi, oziq-ovqat sanitariyasi nazorati amalga oshirildi [7].

Shuningdek, 1923 yili Qo'qon shahrida sanitariya maorifi uyi tashkil etilib, bu muassasa butun Farg'ona viloyati miqyosida sanitariya maorifi targ'iboti bilan shug'ullanib, uning ta'minoti asosan mahalliy mablag'lar hisobidan amalga oshirildi.

Sovet hukmronligining dastlabki yillarida O'rta Osiyoning deyarli barcha shaharlarida tez-tez epidemiya o'choqlari shakllanib, ko'plab aholi punktlariga tarqaldi. Masalan, 1921 yil O'rta Osiyoning 29 ta aholi punktida vabo epidemiyasi yuz berib, 3315 kishi vabo bilan ro'yxatga olingan va shundan 1179 tasi yoki 35,6 foizi vafot etgan. 1921 yilda Samarqandda vabo bilan 113 kishi kasallanib, 48 tasi vafot etadi. 1921 va 1924 yillarda Andijon uezdida o'lat tarqaldi [8].

Tibbiyot xodimlari kasallikni oldini olish va tugatish ishlarini juda qiyinchiliklar bilan olib bordi. Ko'p hollarda mahalliy aholi ularga ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lib, kasallanganlarni ulardan yashirganlar. Aholi asosan maxalliy tabiblarga va diniy yo'l bilan da'volanishga harakat qilishgan. 1918 yil Turkistonning Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona va Amudaryo viloyatlarida ham sog'liqni saqlash bo'limlari tashkil etilib, ular zimmasiga joylarda tibbiy xizmat tarmoqlarini yo'lga qo'yish, profilaktika va sanitariya maorifi ishlarini olib borish, epidemiyalarning oldini olish va ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini uyushtirish, onalar va bolalar salomatligigani saqlash yuzasidan tadbirlar tashkil etish va boshqa shu kabi vazifalar yuklatildi. Shu tariqa O'zbekistondahududida ilk marta markazlashgan sog'liqni saqlash tizimini shakllantirishga kirishildi. Bu jarayon o'ta murakkab tarixiy shartsharoitlarga, xususan mamlakatda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar keskinlashgan, aholi maishiy turmush sharoiti nihoyat qashshoqlashgan, birbiriga qarama-qarshi kuchlar to'qnashuvlari kuchaygan, tabiiy ofatlar tufayli qirg'oqchilik va buning oqibatida xalq orasida ocharchilik va yo'qsillik avj olgan bir davrga to'g'ri keldi. Turkiston Xalq Komissarlar Sovetining 1918 yil sentyabrda tibbiy muassasalarini Sog'liqni saqlash xalq komissarligi ixtiyoriga o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i e'lon qilinib, sovet hukumati tomonidan turli epidemiyalarga qarshi kurash va sanitariya ishini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. "Ich terlama to'g'risidagi chora-tadbirlar", "Epidemiyaga qarshi chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Respublikada sanitariya ahvolini yaxshilash bo'yicha maxsus komissiya tuzish to'g'risida"gi dekretlari shular jumlasidandir. Namangan viloyat sog'liqni saqlash bo'limi M.G'aniev rahbarligida 1918 yili tashkil etilib, sanitariya-epidemiya sohasini Baumfel'd, maktabsanitariya bo'limini Poplovskaya boshqardi va viloyatda quyidagi davolash muassasalari ish olib bordi:

1. 60 o'rinli erkaklar shahar shifoxonasi (rahbari S. Osmul'skiy).
2. 30 o'rinli ayollar shifoxonasi (rahbari vrach Poplovskaya va u bilan birga ordinator Chillag ish olib bordi.)
3. 30 o'rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi (rahbari Konanskiy).
4. Erkaklar ambulatoriyasi kabi [9].

Namangan shahrining mahalliy aholi yashaydigan qismida ham ambulatoriya ochilgan bo'lsada, ammo shahardagi notinchlik tufayli ish olib bormadi. Chust, Pop, Chortoq, Koson, Zarkent, Aleksevskiy qishloqlarida ham davolash punktlari ochilgan edi. Ammo urush tufayli tibbiyot xodimlari evakuasiya qilingan [10].

Yuqumli kasalliklar bilan og'rikan bemorlar to'liq shifoxonaga yotqizilib, ularning davolanishi uchun sobiq covet davrining dastlabki yillarida Namangan viloyatida vrachlar, tibbiyot xodimlari yetishmas, yuqumli kasallik bilan kasallangan bemorlarni davolash uchun shifoxonalar umuman yo'q edi.

1941-1947 yillarda yuqumli kasalliklarga qarshi ikki turda kurashilgan:

1) profilaktik chora-tadbirlar olib borish,

2) kasallik tarqagan o'chog'ini topib uni yo'qotish orqali amalga oshirilgan. Namangan oblasti 1941 yil fashistlar Germaniyasi SSSRga hujum qilishidan oldinroq Farg'ona oblastidan alohida ajratilgan bo'lib, oblast yosh va yangi tashkil topgan edi. Namangan oblastida 518 ta kolxozlar tashkil qilingan bo'lib, kolxozlar asosan paxta yetishtirish uchun mo'ljallangan. Juda kam qismida sholi yetishtirilgan. Sholi yetishtiruvchi zonalar, botqoqliklar mavjud joylarda asosan yuqumli kasalliklardan bezgak, tif va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalish o'chog'i hisoblangan [11].

1941 yilda 70 ming kishi Namangan oblastiga evakuasiya qilingan. Evakuasiya qilinganlar orasida yuqumli kasallik bilan kasallanganlar ko'p edi.

1941 yilning noyabirida Moskva yaqinidan 2903-sonli harbiy gospital Namangan viloyatining Pop tumaniga ko'chirib keltirilib, umuman viloyatda 19 ta gospitallar ish olib bordi.

1941 yil dekabrgacha 357 ta tif bilan og'rikan bemorlar ro'yhatga olingan. 1942 yilga kelib tif bilan og'rikanlar soni 770 nafarga yetdi. 1094 nafar bolalarda yuqumli kasalliklar aniqlangan. Urushdan oldin oblastda 23 ta hammom bo'lgan ammo yarmidan ko'pi yaroqsiz edi. 1941 yil dekabrga borib xammomlar soni 322 ta, 317 ta dizenfeksiyalash muassasalari qurib foydalanishga topshirildi [12].

Urushning og'ir yillari sanitariya-epidemiya xizmati ishini yo'lga qo'yish qiyinlashib bordi. 1941 yil oktyabrida SSSR Davlat Mudofaa Komitetining "Mamlakatda epidemiya kasalliklari bo'yicha aholini ogohlantirish va ularga qarshi kurash" tadbirlari yuzasidan maxsus qarori qabul qilindi.

Sholi ekiladigan maydonda suv doimiy ko'llab turib, chivin va pashshalarning asosiy makoniga aylandi. Bu maydonlarning deyarli barchasi aholi yashash joylariga juda yaqin joyda edi. Sholi nafaqat qishloqlarda hatto shaharlarda ham ekilgan. Bu esa o'z o'rnida bezgak kasalligi tarqatuvchi maskitlar makonining ko'payishiga imkon yaratdi.

Bezgakga qarshi kurash muassasalari ishni tashkil etish borasida respublikaning turli hududlarida olib borilgan chora-tadbirlar qoniqarsiz ahvolda bo'ldi. Masalan, 1943 yil 10- 17 may kunlari Namangan viloyati Pop tumani tropstansiyasi tekshirilganida qator

xatoliklar aniqlanadi. Bu davrda tuman tronstansiyasini Yambulov boshqarib, u olib borilgan ishlarning qoniqarsizligi yuzasidan ogohlantirilishiga qaramasdan, bezgakga qarshi kurash tadbirlarni uyushtirmagan. Shu bois Yambulov ishidan olinib, ishi prokuraturaga topshiriladi. Pop tumanida ba'zi aholi punktlarida bezgak kasalligi epidemiya xarakteriga ega bo'ldi. Masalan, tumanning "Gulbog" sovxozida shunday holat qayd etiladi [13].

Yuqumli kasalliklar eng ko'p tarqalgan hududlarda sanitariya holati achinarli bo'lib bir dona ham hammom yo'q edi.

1-jadval

Yuqumli kasalliklar dinamikasi

№	Kasalliklar	1942	1943	1944	194	194
					5	6
1	Tif	3241	1707	2954	166	537
					1	
2	Qaytalangan tif	-	-	18	14	5
3	Qorin tifi	770	308	125	29	22
4	Dizenteriya	1118	397	341	193	52
5	Toksik dispepsiya	387	130	175	47	52
6	Qizamiq	405	17	91	31	109
						3
7	Qizilcha	63	19	6	-	26
8	Difteriya	103	75	93	38	36
9	Ko'kyo'tal	523	891	276	312	121
10	Sibir kuydirgisi	-	1	-	2	2
11	Bezgak	4492	32395	30415	234	209
		6			49	21
12	Grip	7806	4993	7828	654	360
					8	7
13	Zaxm	-	-	-	322	593
14	Sil	-	-	-	209	212

Pop, Kosonsoy, To'raqo'rg'on tumanlaridagi kolxozlar qishloq fuqarolar yig'inlarida birorta ham hammom yo'q bo'lib ishchilar orasida yuqumli kasallikka qarshi kurash chora-tadbirlari qoniqarsiz ahvolda edi.

1918-yil 17-sentabrda Turkiston Respublikasi Sog'liqni saqlash xalq komissarligi buyrug'i bilan Toshkentda harbiy hospital hududida mikrobiologik laboratoriya tashkil etish bilan tashkil etilgan. Bu laboratoriyaning mudiri A.D.Grekov edi. Keyinchalik bu laboratoriya Epidemiologiya va mikrobiologiya institutiga aylandi.

Institutning dastlabki ilmiy ishlari vabo va chechakka qarshi kurash muammosiga bag'ishlangan. O'sha davrda chechak, vabo kabi kasalliklar nafaqat respublikada, balki butun O'rta Osiyoda keng tarqalgan bo'lib, epidemiologik vaziyat nihoyatda og'ir edi. Shu bois institut barcha kuch-g'ayratini ushbu kasalliklarni bartaraf etish va respublikadagi umumiy epidemiologik vaziyatni yaxshilashga qaratdi.

1918-1949 yillarda institutda 500 ga yaqin ilmiy maqolalar chop etilgan. Sovet hokimiyati yillarida 7 kishilik kichik laboratoriya katta ilmiy salohiyatga ega mustaqil ilmiy-tadqiqot institutiga aylandi, unda 566 nafar, jumladan, 67 nafar ilmiy xodim ishlaydi. Olimlar orasida 4 nafar fan doktori, ulardan biri sobiq Ittifoq Tibbiyot fanlari akademiyasi va O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi, 15 nafar fan nomzodi, 48 nafar kichik ilmiy xodim bo'lgan [14].

Sovet Ittifoqida birinchi marta 1939 yildan boshlab ilon zahari o'rganildi, olish usuli ishlab chiqildi va efa, ilon va kobra chaqishiga qarshi maxsus sarumlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi (Maksianovich M.I. Sodikov F.S. Orlov B.N. Djavakova R.L.). Chayon va qoraqurtning zaharlari o'rganilib, qoraqurtga qarshi zardob ishlab chiqarilgan. 60-yillarda ularning seriyali ishlab chiqarilishi birinchi marta boshlandi. Bu dorilar Germaniya, Yugoslaviya, Vetnam, Angola, Suriya, Gvineya, Eron, Afg'oniston, Pokiston va ittifoq respublikalariga yetkazib berildi.

1950 yilga kelib institutda bir qancha yangi laboratoriya va kafedralar, dori vositalari ishlab chiqarish bo'yicha alohida bo'limlar tashkil etildi. O'sha yili SSSR Vazirlar Sovetining qarori bilan institut Toshkent vaktsinalar va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti deb o'zgartirildi va SSSR Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufiga o'tkazildi.

SSSR Tibbiyot fanlari akademiyasi va O'zSSR Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi, 1925 yildan institut ilmiy ishiga rahbarlik qilgan professor Nikolay Ivanovich Xodukin ToshNIIVSga jahon miqyosida shuhrat keltirdi. U va institut xodimlari parazitologlar maktabini yaratish ustida ish boshladilar, ularning visseral leyshmanioz, bezgak, Shomil spiroxetoz, Q isitmasi va pappatasi, shuningdek, boshqa infeksiyalar bo'yicha ishlari butun dunyoda e'tirof etildi. 1950 yilda u visseral leyshmanioz bo'yicha tadqiqotlari uchun Braziliyaning Kaspar Vianne medali bilan taqdirlangan.

Institut faoliyatining asosiy yo'nalishlari kengayib borishi bilan ilmiy yo'nalishlar kengayib, shu bilan birga ishlab chiqariladigan bakteriologik preparatlar turlari ham kengaydi. Ichak infeksiyalari, tomchilar, difteriya, qizamiq, pnevmoniya mikrobiologiyasini o'rganish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Parazitar kasalliklar - leyshmanioz, spiroxetoz, gelmintozlarni o'rganish bo'yicha katta ishlar qilindi.

1952 yilda chechak va BCG vaksinalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

1957 yilda institut xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnikadan foydalanib, quruq antigen ishemiyani aniqlash uchun yangi dori vositalari - KU vaksinalari va OBF-BCG tuberkulini ishlab chiqarila boshlandi [15].

Xulosa va takliflar

Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki Namangan hududida sanitariya – epimiologiya holati achinarli edi. Yuqumli kasalliklar bilan kasallanish ko'p lekin unga qarshi olib borilgan chora- tadbirlar qoniqarsiz ahvolda edi. Urushning og'ir yillari sanitariya-epidemiya xizmati ishini yo'lga qo'yish qiyinlashib bordi. Lekin shunga qaramay shifokorlarning jonkuyarlik bilan fidikorona mehnatlari tufayli tif, qorin tifi, dizenteriya, toksik dispepsiya, qizilcha, ko'kyo'tal, bezgak, sil, qizamiq va boshqa yuqumli kasalliklarni ancha kamaytirishga erishildi. Ba'zi yuqumli kasalliklarni umuman yo'q bo'lib ketishi uchun vaqt kerak bo'ldi. Shifokorlarning tinimsiz mehnati aholiga tibbiy bilimlarning o'rgatilishi ularning og'irini yengil qilish borasidagi jonkuyarligi tufayli o'lkada sanitariya – epidimiologiya holati birmuncha yaxhilandi.

Aholi orasida olib borilgan profilaktik tadbirlar tufayli asosan O'zbekistonning ba'zi yirik shaharlarida yuqumli kasallik bilan aholining ommaviy kasallanishining oldi qisman olinib, vaziyat ustidan davlatning sanitariya epidemiya nazorati o'rnatildi. Ammo kichik shaharlar va qishloq joylarda ahvol o'zgarishsiz qoldi. Ba'zi hududlarda aholining 90 foizi bezgak, shilpiq, sil kabi yuqumli va ijtimoiy kasalliklarga chalinishi va qishloq aholisining yoppasiga aziyat chekishi kuzatiladi. Bu kabi kasalliklarning tarqalishida o'ziga xos ob'ektiv va subektiv sabablar mavjud bo'ldi.

Namanganda Ikkinchi jahon urushi yillarida sog'liqni saqlash sohasi tarixini tadqiq etish natijasida quyidagi taklif va mulohazalarni kiritish imkoni tug'ildi: Hozirgi kunda ijtimoiy kasalliklarning oldini olish va tugatish uchun avvalo aholi moddiy turmush sharoitini yaxshilash yo'llarini izlab topish, ularning sifatli oзуqalar bilan ovqatlanish sharoitlarini yaratish birinchi darajali masalalardan hisoblanadi.

Davlat davolash muassasalari bilan birga boshqa davlatlar bilan hamkorlikda tuzilgan va xususiy davolash maskanlari ham faoliyat yuritishi kerak, xalq tabobatini alohida chuqur o'rganish zarur va eng asosiysi axolini gigiyenik bilimlarini oshirish muhim ahamyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Ona va bola salomatligi-oliy saodat. “O‘zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli:”Sog‘lom ona-sog‘lom bola” mavzuidagi xalqaro simpoziumda so‘zlagan nutqi.//Bizning yo‘limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. 20-jild,-Toshkent.:O‘zbekiston.,2012.- B. 34.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. Toshkent., 1992, №9.(1197). 80-90 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. Toshkent.: 1996, №8.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. Toshkent.: 1998, №10-11.(1270-71). B. 31-35.
5. 26.04.2021dagi O‘RQ-685-sonli “Sanitariya-epidemiologiya xizmati takomillashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
6. Mo‘minova G. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi tarixi. (1917-1991-yy.). – 7. O‘zRMDA, 40-fond, 1-ro‘yxat, 303-ish, 18-varaq
8. К борьбе с эпидемия. // Наша газета, 1918, 9 июня, №115; Мобилизация врачей // Наша газета. 1918. 12 июня, №117.
9. O‘zRMDA, R-40-fond, 1-ro‘yxat, 137-ish, 399-varaq.
10. Mo‘minova G. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi tarixi. (1917-1991-yy). – Toshkent, 2015. B.51.
11. Namangan viloyat Davlat Arxivi, 561-fond, 15-ish, 75-varaq.
12. Namangan viloyat Davlat Arxivi, 561-fond, 15-ish, 75-varaq.
13. Mo‘minova G. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi tarixi. (1917-1991-yy). – Toshkent, 2015. B.91.
14. Namangan viloyat Davlat Arxivi, 561-fond, 13-ish, 18-varaq.
15. Ashurov A. “Toshkent Vaksinalar va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti” . Toshkent Vaksinalar va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti direktori
/ <https://toshvziti.uz/ru/about/>